

**SCIENCE
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzARB
muammolari**

Jild 3, Son 10

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 10 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизилиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирнов Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа оқтори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаси хузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент аҳборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шоҳида Зайнине – педагогика фанлари доктори, доцент.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-туманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон журнали
1368-сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психологик хизмат бошлиги.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Фарманова Гулнара Комилевна

МЕТОДЫ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ТЕРРИТОРИИ САМАРКАНДСКОГО СОГДА В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА 9-18

Саидбобоева Гулзора Нематжоновна

ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ АРХИВИ ҲУЖЖАТЛАРИДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРИНИНГ ҚУРИЛИШИГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАР (XX АСР 20-ЙИЛЛАРИ ОХИРИ-30-ЙИЛЛАР БОШИ) 19-26

Ахмедов Шахзод Фарход ўғли

МУСТАҚИЛЛИККА ЭРИШИШ АРАФАСИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИКНИНГ УМУМИЙ ҲОЛАТИ ВА МАВЖУД МУАММОЛАРИ 27-34

Mirsoatova Sayyora Turg'unovna

MARKAZIY FARG'ONA NEOLIT JAMOALARI MADANIYATI HAQIDA MULOHAZALAR 35-39

Янгибоева Дилноза Ўқтамовна

МУҲАММАД ШАРИФЖОН МАҲДУМ САДРИ ЗИЁНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ФАОЛИЯТИ 40-48

Maҳмудов Эркинжон Асқаралиевич
АРАБЛАР ТОМОНДАН ФАРГОНАНИНГ ЗАБТ ЭТИЛИШИ ҲАҚИДАГИ МАЪЛУМОТЛАР ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ 49-53

Yoriqulov Nasibulla Xoliyorovich

О'ZBEKISTON HUDUDIGA G'ARB ME'MORCHILIK AN'ANALARINING KIRIB KELISHI 54-58

Ergasheva Bahridil G'olibjonovna

IJTIMOIY TARMOQLARDAGI REKLAMALARNING IJTIMOIY-MA'NAVIY HAYOTGA TA'SIRIGA DOIR MULOHAZALAR (ETNOSOTSILOGIK TAHLIL) 59-65

Абдухамидов Исломбек Абдухалим ўғли

МЕҲНАТ МИГРАЦИЯСИНИ ЎРГАНИШДА ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР 66-74

Boltayeva Moxichehra Jamshid qizi

XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN KO'RSATKICHLAR (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA) 75-80

Кандахаров Анваржон Хасанович, Бабаярова Шахноза Шухратовна

БУХОРО ХОНЛИГИДА АБДУЛЛАХОН II ДАВРИНИНГ ҚУРИЛИШ ИНШООТЛАРИ

ТАРИХИГА БИР НАЗАР 81-86

8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Boltayev Nurali Shiramatovich

AGRAR OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI 87-93

<i>Дустова Мухайё Худайбердиевна</i>	
РОСТ, УСТОЙЧИВОСТЬ, ДОХОДНОСТЬ: ЭКОНОМЕТРИКА ФИНАНСОВЫХ ПОТОКОВ НА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ	94-102
<i>Ravshanov Malik Naimovich</i>	
МETHODOLOGY FOR DETERMINING THE NEED FOR ECONOMIC RESOURCES OF THE ROAD TRANSPORT COMPLEX.....	103-108
<i>Xushmuradov Oman Namozovich</i>	
TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI	109-115
<i>Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li</i>	
DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISHDA KORRUPSIYANI OLDINI OLISH	116-121
09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>Наврӯзова Гулчехра Нигматовна</i>	
АКАДЕМИК ИБРОҲИМ МЎМИНОВ ИЛМИЙ ЖАСОРАТИНИНГ ЯНГИ ҚИРРАСИ	122-128
<i>Talapov Baxriddin Aljanovich</i>	
KONSTITUTSIONIZM DEMOKRATIK RIVOJLANISHNING ASOSI SIFATIDA	129-134
<i>Tajibaev Muxiddin Abdurashidovich</i>	
JAMIyat HAYOTIDA SINERGETIK DUNYOQARASH PARADIGMASINI TADQIQ QILISHNING AHAMIYATI	135-140
<i>Солиев Икромжон Комилжонович</i>	
РАҶАМЛИ ДУНЁДА ИНСОН ҚАДРИ МУАММОСИ: ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИН	141-147
<i>To'xtayev Xakim Primovich</i>	
TASAVVUF TA'LIMOTLARIDA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASINING NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI	148-153
<i>Уразалиева Гулшада</i>	
СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КАТЕГОРИИ «ГЕНДЕР» В СИСТЕМЕ ОБЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ	154-160
<i>Гуламова Мавжуда Ташиулатовна</i>	
ИЖТИМОЙ АХЛОҚ МЕЗОНЛАРИНИ ЎРГАНИШДА КУМУШХОНАВИЙ ВАСИЯТНОМАЛАРИНИНГ ЎРНИ	161-167
<i>Xoliqov Lazizjon Maxmud o'g'li</i>	
GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOIY-DUNYOVII DAVLAT SIFATIDAGI MAQOMI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)	168-172
<i>Quvonov Sardor Zokirovich</i>	
МА'NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA "MANOQIBI SHAYX XUDOYDOD VALIY" ASARINING AHAMIYATI	173-178
10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	

Халметова Мехрибону Гайратжоновна
**ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕТСКОЙ ЛЕКСИКИ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ
ЯЗЫКАХ** 179-186

Abdijabbor Amanov
**MURAKKAB SINTAKTIK BUTUNLIKNING MATNNING KATTA BIRLIGI SIFATIDA O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI** 187-193

Umarova Xurshida Zikiryoxonovna
AQSH ADABIYOTIDA PSIXOLOGIK ROMAN TADRIJI 194-201

Odinayev Bekqul Imamqulovich
LISONIY SHAXS: TA'RIF, TAHLIL, TALQIN 202-210

Jaloliddin Jo'rayev, Jamoliddin Jo'rayev
**"DEVONI LUG'ATIT-TURK" VA "GULSHAN UL-ASROR" DAGI QADIMGI TURKIY SO'ZLAR
QIYOSI** 211-217

Saidov Akmal Azimovich
**"TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI" YO'NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARDA
MADANIYATLARARO MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH** 218-224

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

Qosimov Botirjon Ma'rufjon o'g'li
**SUDYALAR OLIY KENGASHINI SUDYALARARNING CHINAKAM HAMJAMIYATI ORGANIGA
AYLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY MASALALARI** 225-231

Жўраев Дилмурот Мухторович
**МАЪМУРИЙ ВА ОММАВИЙ ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРДАН КЕЛИБ ЧИҚАДИГАН
НИЗОЛАРНИ СУДДА ҲАЛ ЭТИШДА КЕЛИШУВ ТАРТИБ-ТАОМИЛЛАРИНИ ҚЎЛЛАШГА
ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР** 232-240

Эшонхонов Камолхон Маматхонович
**БАНД СОЛИНГАН МУЛКНИ ҚОНУНГА ХИЛОФ РАВИШДА ТАСАРРУФ ЭТИШ ЖИНОЯТИНИ
КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШДАГИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР** 241-246

Бўриев Одил Қобилович
**КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШ – ИНСОН ҚАДРИНИ ЮКСАЛТИРИШ
МЕЗОНИДИР** 247-253

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Umarzoda Shohruh Azamat o'g'li
**"ALGORITMIK TILLAR VA DASTURLASH ASOSLARI" FANI MAZMUNI VA O'QITISHNING
MAVJUD HOLATI** 254-259

Эргашева Гули Исмоил кизи, Инамова Гуллола
**ЗНАЧИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФОНЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРОЦЕССЕ
КОММУНИКАЦИИ** 260-265

<i>Bobomurotov Sirojiddin Mengziyo o'g'li</i>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI VARIANTIV TUSHUNCHALAR ASOSIDA O'QITISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING O'RNI	266-271
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI	272-277
<i>Ботиров Азизбек</i>	
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ: АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ	278-283
<i>Эшбеков Сардор Журакулович</i>	
ЁШЛАРНИ ҲАРБИЙ ВАТАНПАРVARЛИК РУХИДА ТАРБИЯЛАШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШИНГ МУҲИМ ОМИЛИ	284-288
<i>Abdullaeva Feruza Suyunovna</i>	
KASBIY TERMINOLOGIYANI O'RGATISHDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	289-293
<i>Ortiqov Oybek Rustamovich</i>	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING TASHKIL ETILISHI.....	294-298
<i>Erhanova Nasiba Absayitovna</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING "TIL VA NUTQ" MARKAZIDA INNOVATSION FAOLIYAT OLIB BORISH	299-303
<i>Robiya Mannopova</i>	
INNOVATIVE COMPETENCY AS A CORE COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS.....	304-308
<i>Qodirov Olim Odilovich</i>	
REFLEKSIV YONDASHUV, UNING MOHIYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	309-314
<i>Xaydarova Mahliyo Xabibullayevna</i>	
TARBIYA FANINI O'QITISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	315-322
<i>Xasanova Gulsanam Xusanovna</i>	
IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYATDA MAGISTRATURA TALABALARINING TASHKILIY- BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI	323-328

12.00.00- Юридик фанлар

Qosimov Botirjon Ma'rufjon o'g'li
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori,
TDYU Konstitutsiyaviy huquq kafedrasi dotsenti v.b.
Email: b.qosimov@tsul.uz

SUDYALAR OLIY KENGASHINI SUDYALARNING CHINAKAM HAMJAMIYATI ORGANIGA AYLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY MASALALARI

Annotatsiya. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashi konstitutsiyaviy maqomiga binoan sudyalarning hamjamiyati organi hisoblanadi. Biroq uning shakllantirish tartibi uning bunday emasligini ko'rsatadi. Ushbu maqolada Sudyalar oliv kengashini chinakam sudyalar hamjamiyati organiga aylantirishga doir masalalar tanqidiy tahlil etilgan. Sudyalar oliv kengashini sudyalarning o'zlari saylagan taqdirdagina u sudyalarning chinakam hamjamiyati organiga aylanishi mumkin degan xulosaga keltingan. Bu borada O'zbekiston Konstitutsiyasining tegishli normalariga o'zgartirish kiritish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: sud hokimiyyati, Sudyalar oliv kengashi, sudlar, sudyalar.

Botirjon Kosimov,
Doctor of Philosophy in Law,
Acting Associate Professor,
Constitutional Law Department, TSUL

CONSTITUTIONAL ISSUES OF TRANSFORMING THE SUPREME COUNCIL OF JUDGES INTO A TRUE BODY OF JUDICIAL COMMUNITY

Abstract. According to its constitutional status, the Supreme Council of Judges of the Republic of Uzbekistan is a body of the community of judges. However, the way it is formed shows that it is not. This article critically analyzes the issues related to the transformation of the Supreme Council of Judges into a real body of the community of judges. It argues that the Supreme Council of Judges can become a true community body of judges only if the judges elect its members themselves. In this regard, the article proposes amendments to the Constitution of Uzbekistan.

Key words: judiciary, the Supreme Council of Judges, courts, judges.

Косимов Ботиржон Маъруфжон угли
Доктор философии по юридическим наукам,
И.о. доцент кафедры Конституционного права ТГЮУ

КОНСТИТУЦИОННЫЕ ВОПРОСЫ ПРЕОБРАЗОВАНИЯ ВЫСШЕГО СОВЕТА СУДЕЙ В ИСТИННО ОБЩЕСТВЕННУЮ ОРГАНИЗАЦИЮ

Аннотация. Согласно своему конституционному статусу Высший совет судей Республики Узбекистан является органом судебского сообщества. Однако то, как оно формируется, показывает, что

на самом деле это не так. В данной статье критически анализируются вопросы, связанные с преобразованием Высшего совета судей в реальный орган судебского сообщества. Сделан вывод, что Высший совет судей может стать по-настоящему общественным органом судей только в том случае, если его выберут сами судьи. В связи с этим предоставлены предложения о внесении изменений в соответствующие нормы Конституции Узбекистана.

Ключевые слова: судебная власть, Высший совет судей, суды, судьи.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I10Y2023N32>

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'zining deklarativ normasi orqali sud hokimiyati mustaqil ekanini belgilab bergan [1]. Konstitutsiyaning 135-moddasida O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashining konstitutsiyaviy maqomi belgilab berilgan. Unga binoan Sudyalar oliv kengashi sudyalar hamjamiyatining mustaqil organidir. U sudyalar korpusining shakllantirilishini, sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta'minlaydi [2]. Mazkur konstitutsiyaviy normada Sudyalar oliv kengashining sudyalar hamjamiyati organi ekaniga urg'u berilsa-da, uni shakllantirishning amaldagi tizimi u haqiqiy sudyalar hamjamiyati organi emasligini ko'rsatadi.

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashining O'zbekiston Konstitutsiyasiga binoan tashkil etilishiga ko'ra huquqiy maqomi tahlil etilgan. Sudyalar oliv kengashining O'zbekiston Konstitutsiyasida belgilangan maqomi-sudyalar hamjamiyati organi emasligi, uning amalda bunday maqomda faoliyat olib borish uchun u sudyalarning o'zlari tomonidan saylanishi kerakligi asoslab berilgan. O'zbekistonda Sudyalar oliv kengashining sudyalar hamjamiyati organiga aylanishi hamda uning mustaqil faoliyat olib borishiga qaratilgan O'zbekiston Konstitutsiyasiga o'zgartish kiritish taklifi berilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu maqolani yozishning metodolgiyasini manbalarni tanqidiy o'rganish, formal yuridik tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, so'rovnomalar va intervyyu natijalari tahlili metodlari tashkil etadi.

Sudyalar oliv kengashining huquqiy maqomini yoritib berishga qaratilgan manbalarni ikkiga ajratish mumkin. Ularning birinchisi ilmiy manbalar bo'lsa, ikkinchisi amaliy qo'llanmalardir. Biz maqolani yozishda har ikki manbadan foydalandik. Ilmiy maqolalarda sudyalar oliv kengashining huquqiy maqomiga doir olimlarning qarashlariga tayangan holda amaldagi qonunchilikda ular qay darajada normativ mustahkamlangani tahlil etildi. Amaliy qo'llanmalarga tayangan holda esa sudyalar kengashi faoliyatining amaliy jihatlari tahlil etildi. Ushbu maqola nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham foydali bo'lishi uchun har ikki turdag'i manbalardan teng foydalanishga e'tibor qaratildi.

Muhokama. Muhokamani sudyalar kengashining vujudga kelishi, undan ko'zlangan maqsad hamda modellaridan boshlash maqsadga muvofiq. O'rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sud tizimi boshqaruvi ("judicial administration") sud hokimiyatining mustaqilligi konstitutsiyaviy prinsipini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Milliy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda "sud tizimi boshqaruvi" degan tushuncha ishlatilmaydi. Vaholanki, ushbu tushuncha xorijiy mamlakatlar, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda konstitutsiyaviy huquq fanida keng qo'llanadi.

Dunyo miqyosida sud tizimini boshqarishning adliya vazirligi, sudyalar kengashi, sud xizmati, gibrid, sotsialistik modellari mavjud [3]. O'zbekiston sud tizimi boshqaruvi sudyalar

kengashi modeliga asoslangan. Ushbu modelga ko'ra sud tizimi boshqaruvi maxsus institutsional tuzilma – sudyalar kengashini tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Ko'plab xalqaro huquqiy hujjatlarda davlatlar tomonidan sudyalar kengashini tashkil etishga da'vat etiladi yoki qo'llab-quvvatlanadi [4]. Shundan kelib chiqib, dunyo mamlakatlarining 60 foizida turli shakldagi sudyalar kengashi tashkil etilgan [5]. 2014 yil iyun oyida Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan 13 ta davlatning sudyalar kengashi tashabbusi bilan Sudyalar kengashlarining Yevropa tarmog'i xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti ("European Network of Councils for the Judiciary" – ENCJ)ga asos solindi. Bu sudyalar kengashining rivojlanishi va u orqali sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlashga mintaqalar darajasida e'tibor berilayotganidan darak beradi [6].

Sudyalar kengashining maqomi ko'pgina davlatlar, jumladan, Fransiya, Italiya, Peruda konstitutsiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Daniya va Vengriya hamda boshqa bir qator davatlarda maxsus qonunlar orqali mustahkamlab qo'yilgan. Biroq ta'kidlash joizki, sudyalar kengashining maqomini konstitutsiyaviy normalar bilan tartibga solish unga konstitutsiyaviy legitimlik beradi. Bu keyinchalik uning faoliyatini maxsus qonun yoki huquqning boshqa manbalari orqali qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi yoki sud hokimiyatidan mustaqil tarzda yo'lga qo'yish imkonini beradi [7].

V. Ausmen va S. Yelenaning qayd etishicha, sudyalar kengashini tashkil etishdan ko'zlangan ilk maqsad sudyalarni lavozimga tayinlash, rag'batlantirish, ozod etishda ijro hokimiyatining ishtirokini cheklash yo'li bilan sud hokimiyatini siyosiy bosimlardan xalos etish bo'lgan [8]. N. Garupa va T. Ginsburgning ta'kidlashicha, sudyalar kengashi sud hokimiyatining mustaqilligi va hisobdorligiga bo'lgan ehtiyojni qondirish vositasidir. Siyosatchilar va sudyalar o'rtaida oraliq organ vazifasini o'taydigan ushbu tuzilma sud hokimiyatining ham mustaqilligi, ham hisobdorligini ta'minlashga xizmat qiladi [9].

Sudyalar kengashi tarixda birinchi bo'lib 1946 yilda Fransiyada tashkil topgan. 1958 yilda Italiyada sudyalar kengashi butun sud hokimiyatini siyosiy nazoratdan ajratib olishga imkon berdi [10]. Keyinchalik sudyalar kengashi Skandinaviya davlatlarida ham tashkil etildi. Natijada, sudyalar kengashi ikki xil Janubiy Yevropa va Shimoliy Yevropa modellari ko'rinishiga ega bo'ladi.

Janubiy Yevropa modeliga ko'ra sudyalar kengashi konstitutsiyaviy maqomga ega bo'lib, sudyalar korpusini shakllantirish va sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortish bilan bog'liq vakolatlarga ega. Shimoliy Yevropa modeliga asoslangan sudyalar kengashi yuqoridaqilarga qo'shimcha tarzda sud tizimini boshqarish bilan bog'liq keng ko'lamli vakolatlarga ega. Bularga sudlar uchun binolar ajratish, sud ishlarini avtomatlashtirish, sud ishlarini ko'rib chiqish samaradorligini oshirish, sudyalarning malakasini oshirish, sud tizimi uchun budget loyihasini ishlab chiqish, sudlar faoliyatini samarali tarzda tashkil etishga qaratilgan strategik rejalahtirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish bilan bog'liq vakolatlarni keltirish mumkin [11].

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 135-moddasida sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan maxsus organ – O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining maqomi mustahkamlab qo'yilgan. Ushbu konstitutsiyaviy normaga binoan O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi sudyalar hamjamiyati organi bo'lib, uning asosiy vazifasi mamlakatimizda sud hokimiyatining mustaqilligi konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta'minlashga ko'maklashishdir [12]. Bu borada uning vazifa va vakolatlari

“O’zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining Qonunida belgilab berilgan.

“O’zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g’risida”gi Qonunga ko‘ra sudyalar oliy kengashi faoliyatini qonuniylik, mustaqillik, kollegiallik, xolislik, o‘z a’zolarining teng huquqliligi va ochiqlik prinsiplari asosida olib boradi [13]. Sudyalar oliy kengashi o‘z faoliyatini davlat organlari va boshqa tashkilotlardan, shuningdek, mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda faqat qonunga bo‘ysungan holda amalga oshiradi. Uning faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi [14].

Yuqoridagi normalar Sudyalar oliy kengashining bironta davlat hokimiyati organlari va mansabdor shaxslariga bo‘ysunmaydigan konstitutsiyaviy maqomga ega bo‘lgan davlat hokimiyati organi ekanidan darak beradi.

Sudyalar kengashi tarkibi, tuzilishi, shakllantirilishi, bo‘ysunuvi, vazifalari, vakolatlari, yuqori va quyi sudlar bilan bo‘ladigan munosabatlariga ko‘ra bir-biridan farqlanadi [15]. Umuman olganda, har bir davlat sudyalar kengashining modelini yoki modellarining turli jihatlarini o‘zida sud hokimiyatining mustaqilligi bilan bog‘liq muammolardan kelib chiqib o‘zlashtirgan. Bunga Markaziy Yevropa, Sharqi Yevropa hamda Lotin Amerikasida joylashga bir qator davlatlarni misol qilib keltirish mumkin [16]. O’zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi vakolatlarining tahlili esa uni ko‘proq Janubiy Yevropa modeliga yaqin ekanini ko‘rsatadi.

Sudyalarning oliy hamjamiyati organi Germaniya Federativ Respublikasida Federal sudyalar kengashi (Bundesrichterwahlausschuss), Italiyada magistrlarning oliy kengashi (Consiglio Superiore della Magistratura), Fransiyada Sudyalar oliy kengashi deb nomlanib, ular sudyalar konferensiyasida saylanadi. Shuningdek, Ispaniya, Portugaliya, Ruminiya, Belgiya, Gretsya, Chexiya kabi davlatlarda ham sudyalar oliy kengashi sudyalar tomonidan saylanadi [17].

O’zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi Konstitutsiyada ko‘rsatib o‘tilganidek sud hokimiyatining mustaqilligi konstitutsiyaviy prinsipiga riosa etilishini ta’minalashga ko‘maklashadigan chinakam sudyalar hamjamiyati organiga aylanishi zarur. Bunda, eng avvalo, uning o‘zini mustaqil organ sifatida faoliyat olib borishini ta’minalash zarur. Buning uchun Sudyalar oliy kengashini shakllantirishning huquqiy asoslarini sudyalar hamjamiyatini shakllantirishning xalqaro standartlariga moslashtirish kerak.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Sudyalar oliy kengashi sudyalar hamjamiyati organi deya ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, u siyosiy organlar tomonidan shakllantiriladi. Konstitutsiyaning 95-moddasi 1-bandiga muvofiq Sudyalar oliy kengashining saylash Oliy Majlis Senatining mutlaq vakolati hisoblanadi. Shuningdek, Konstitutsiyaning 135-moddasiga binoan O’zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi raisi va uning o‘rribosari O’zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan besh yillik muddatga saylanadi [18]. Bundan ko‘rinib turibdiki, Sudyalar oliy kengashi sudyalarning o‘zlari tomonidan shakllantiriladigan organ emas. Uni shakllantirish to‘liq tarzda Prezident va Senatning siyosiy irodasiga bog‘liq.

Yuqorida keltirib o‘tilgan rivojlangan demokratik xorijiy davatlarning tajribasidan ko‘rinib turibdiki, sudyalar oliy kengashi sudyalar hamjamiyati organi bo‘lishi uchun u sudyalar tomonidan saylanishi kerak. Bu orqali sudyalar kengashiga nisbatan siyosiy organlarning ta’siri

kamayib, uning mustaqillik darajasi oshadi. Sud hokimiyatining mustaqilligi konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta'minlashga ko'maklashadigan organga aylanadi.

Bu borada xalqaro tashkilotlarning ham tavsiyasini kuzatish mumkin. Xususan, Yevropa davlatlari sudyalar kengashlarining vakillaridan iborat bo'lgan Sudyalar kengashi bo'yicha Yevropa hamjamiyati (European Network of Councils for the Judiciary (ENCJ) tashkiloti sudyalar oliy kengashi tarkibining ko'pchiligi sudyalardan iborat bo'lishini tavsiya etadi [19].

Yevropa Kengashining maslahat organi bo'lgan Venetsiya komissiyasi sudyalar oliy kengashining roli va tuzilishi borasida tavsiyalar berib o'tadi. Venetsiya komissiyasi sud tizimining o'z o'zini boshqarish va sudyalar oliy kengashining saylanishini tavsiya etadi [20]. Bu ayni vaqtida Xalqaro yuristlar assotsiyatsiyasi tomonidan ham qo'llab-quvvatlanadi [21].

Biz sudyalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovda "Sudyalar oliy kengashi sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash borasida nima ishlar qilishi kerak deb o'ylaysiz?" degan ochiq savolga "To'liq mustaqil bo'lishi kerak", "Mustaqil bo'lishi lozim" degan javoblar berildi.

Aslida sudyalar kengashi sudyalarning o'z-o'zini boshqaradigan organ bo'lgani sababli uning ko'pchilik qismi sudyalardan iborat bo'lishi va ular sudyalar tomonidan saylanishi kerak [22]. 2022-yilda Sudyalar kengashi bo'yicha Yevropa hamjamiyati (European Network of Councils for the Judiciary (ENCJ) tomonidan Yevropa mamlakatlari sudyalari o'rtasida o'tkazgan so'rov natijasiga ko'ra sudyalar kengashining mavjudligi sud tizimining mustaqil bo'lishiga kafolat bera olmaydi. Bunday mustaqillik asosan sudyalar kengashi a'zolarining shakllantirilish tartibiga bog'liq [23]. Biz ham ushbu fikrni qo'llab-quvvatlaymiz. Biz tomonidan sudyalar orasida o'tkazgan so'rovimizda "Sudyalar oliy kengashini sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlashga ko'maklashadigan chinakam organ deb hisoblaysizmi?" degan savolga ovoz bergen sudyalarning 42,7 %i "Ha", 36 %i "Yo'q", "21,3" %i "Biron narsa deya olmayman" deya javob bergenlari ham buni yaqqol isbotlay oladi.

Shunday ekan, Sudyalar oliy kengashini sudyalar tomonidan saylanishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 135-moddasiga tegishli tuzatishlar kiritishni talab etadi. Xususan, ushbu moddada Sudyalar oliy kengashi sudyalar tomonidan qonunga muvofiq tartibda saylanishi alohida keltirib o'tilishi kerak.

Natija. Yuqoridagidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining sudyalar orasidan shakllantiriladigan qismini respublika sudyalar syezdi yoki konferensiyasida turli instansiya sudining sudyalari orasidan saylash, Sudyalar oliy kengashining raisi va uning o'rinosari nomzodi Sudyalar oliy Kengashi tomonidan Oliy Majlis Senatiga taqdim etilishi, taqdim etilgan nomzodlar Oliy Majlis Senati tomonidan saylanishi maqsadga muvofiq.

Shunga asosan, O'zbekiston Konstitutsiyasining 135-moddasinining birinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

135-modda.

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi sudyalar hamjamiyatining mustaqil organi bo'lib, u sudyalar korpusining shakllantirilishini, sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi respublika sudyalar konferensiyasida saylanadi. Sudyalar oliy kengashining raisi va uning o'rinosari Sudyalar oliy kengashining taqdimiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan besh yillik muddatga saylanadi. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining raisi, rais o'rinosari etib saylanishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashini tashkil etish va uning faoliyati tartibi qonun bilan belgilanadi.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi Konstitutsiyaga ko'ra sudyalarning hamjamiyati organidir. Biroq uni shakllantirishda sudyalar ishtirok etmaydi. Sudyalar oliy kengashi sudyalarning hamjamiyati organiga aylanishi uchun u sudyalar tomonidan saylanishi kerak. Bu ayni vaqtida O'zbekiston Konstitutsiyasi 135-moddasiga bu bilan bog'liq tegishli o'zgartishlar kiritishni talab etadi. Sudyalar oliy kengashining sud hokimiyatining chinakam hamjamiyati organiga aylanishi esa uning sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash vakolatini real amalga oshira oladigan organga aylantiradi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Косимов, Б., 2022. Constitutional Elements of Judicial Independence: are they enough in the Constitution of Uzbekistan?. *Общество и инновации*, 3(10/S), pp. 205-212.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 135-moddasi. <https://lex.uz/docs/20596>
3. Preshova D., Damjanovski I., Nechev Z. The Effectiveness of the 'European Model of Judicial Independence in the Western Balkans: Judicial Councils as a Solution or a New Cause of Concern for Judicial Reforms //CLEER Paper Series. – 2017. – Т. 1. – Р. 16.
4. Batafsil ma'lumot uchun qarang: United Nations Basic Principles on the Independence of the Judiciary. <https://www.icj.org/wp-content/uploads/2014/03/UN-Basic-principles-independence-judiciary-1985-eng.pdf> Beijing Statement of Principles of the Independence of the Judiciary in the LAWASIA region. <https://www.icj.org/wp-content/uploads/2014/10/Beijing-Statement.pdf>
5. Latimer House Guidelines. <https://www.cmja.org/downloads/latimerhouse/commprinthreearms.pdf>
6. Recommendation on Judicial Independence. <https://advokat-prnjavorac.com/legislation/Recommendation.pdf>
7. European Charter on the Status of the Judge. <https://rm.coe.int/16807473ef>
8. Garoupa N., Ginsburg T. Guarding the guardians: Judicial councils and judicial independence //The American Journal of Comparative Law. – 2009. – Т. 57. – №. 1. – Р. 3.
9. Batafsil ma'lumot uchun qarang: Guide to the European Network of Councils for the Judiciary. https://www.encj.eu/images/stories/pdf/workinggroups/guide/encj_guide_version_mar_ch_2015.pdf
10. Autheman V., Elena S. Global best practices: Judicial Councils //IFES Rule of Law White Paper Series. – 2004. – Р. 7.
11. O'sha manba. – Р. 2.
12. Garoupa N., Ginsburg T. The Economics of Judicial Councils. – 2007. – Р. 3. <https://escholarship.org/content/qt4264z9r8/qt4264z9r8.pdf>
13. Garoupa N., Ginsburg T. Guarding the guardians: Judicial councils and judicial independence //The American Journal of Comparative Law. – 2009. – Т. 57. – №. 1. – Р. 5.
14. Albers P., Voermans W. J. M. Councils for the Judiciary in EU Countries //Wim Voermans and Pim Albers, COUNCILS FOR THE JUDICIARY IN EU COUNTRIES, Council of Europe, European Commission for the Efficiency of Justice (CEPEJ), Strasbourg. – 2003. – Р.14.
15. Qarang: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 135-moddasi. <https://lex.uz/docs/20596>

16. Qarang: "O'zbekiston Respublikasi Sudalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 14-son, 214-modda.
<https://lex.uz/docs/3153668>
17. O'sha manba.
18. Autheman V., Elena S. Global best practices: Judicial Councils //IFES Rule of Law White Paper Series. – 2004. – P. 2.
19. O'sha manba. – P. 6.
20. Garoupa N., Ginsburg T. The Economics of Judicial Councils. – 2007. – P. 3-7. UC Berkeley Latin American and Caribbean Law and Economics Association (ALACDE) Annual Papers.
<https://escholarship.org/content/qt4264z9r8/qt4264z9r8.pdf>
21. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 95 va 135-moddasi.
<https://lex.uz/docs/6445145>
22. Guide to the European Network of the Councils for the Judiciary. https://pgwrk-websitemedia.s3.eu-west-1.amazonaws.com/production/pwk-web-encj2017-p/Reports/ENCJ_Guide_version_January-2023.pdf – P. 11.
23. Council of Europe standards on judicial independence.
[https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/BRIE/2021/690623/EPRS_BRI\(2021\)690623_EN.pdf](https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/BRIE/2021/690623/EPRS_BRI(2021)690623_EN.pdf)
24. IBA Minimum Standards of Judicial Independence (Adopted 1982).
<https://www.ibanet.org/MediaHandler?id=bb019013-52b1-427c-ad25-a6409b49fe29>
25. COMPARATIVE NOTE ON MODELS OF JUDICIAL COUNCILS AS INDEPENDENT AND SELF-GOVERNING BODIES. Warsaw, 16 December 2021 Opinion-Nr.: JUD-KAZ/415/2021
<https://www.osce.org/files/f/documents/0/e/509090.pdf> – P. 14.
26. 2022 ENCJ SURVEY ON JUDICIAL INDEPENDENCE PUBLISHED.
<https://www.encj.eu/node/620>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 10 (3) – 2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).